



O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH

Mahmudjonov Otabek

Saminov Sherjahon

Alijonov Adhamjon

Farg'ona politexnika institute

O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni yuzaga kelishi, sabablari, uni kamaytirish haqida so'z yuritilganda avvalo kambag'allik haqida tushuncha hosil qilib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kambag'allik alomatiga turli mamlakatlarda turlicha izoh ya'ni tushuntirishlar beriladi. Ularning ba'zi birlarida insonning kundalik turmushida ehtiyoji uchun zarur bo'lgan iste'mol uchun tovarlarini harid qobiliyatining pastligiga kambag'allik deb qaraladi. Boshqalarida mamlakat tomonidan fuqarolarga yaratilgan qulayliklarning kamligi yoki huquqlardagi cheklovlarning kamligi, fuqarolarga malakali tibbiy xizmatdan foydalana olish imkoniyati, ta'lim-tarbiyadagi imkoniyatlar (savodi chiqqan qatlamning sanog'i) aksariyatlarida esa oilaning kunlik ehtiyojlaridan orttirib farzandli bo'lingan holatta uning ham ehtiyojlarini qondira olish, ta'minlash, o'qitish harajatlarini qoplay olish qobiliyati ham tushunilishiga nima deysiz?

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarida kabi aholi qatlamlarini kambag'allik darajasini ijobiy tomonga o'zgartirish ya'ni kambag'allikni qisqartirish uchun tizimli ishlar amalga oshirila boshladi.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi mamlakatda ham kambag'allikka har xil qaraldi. Aniqroq qilib aytsak, 2020-yilga qadar kambag'allik muammosiga "kam ta'minlanganlik", "ehtiyojmandlik", "boquvchisini yo'qotganlik" kabilar asosidagi nazarlar bilan qarab kelindi.

2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasidan keyin oydinlashdiki, Respublikada umumiy qilib olganda taxminan 4,5-5 million kishi yoki Respublika aholisining 12-15 % kambag'allik darajasida ekan.

Bu katta ko'rsatkich, juda achinarli ko'rsatkich aslida. Lekin bu darrovda kimnidir aybdor sifatida ko'rsatib qo'yish uchun asos bo'lmaydi.

Maqsad boshqa! Maqsad bu muammo yana ham avjlanmasidan zaruriy choralarni ko'rish kerakligi va bunga barham berish lozimligidadir.

Donishmand aytadi: "Ahmoq odam muammodan qochib quuksa bo'ladi deb o'ylaydi va qochishga tushadi, bu yechim emas, aqlli odam muammoni hal



qiladi, kelib chiqish sabablarini qidirib topadi. Ilm ahllari bilan kengashib uni hal etish choralarini ko'rishga kirishadi va uni hal etadi",- deydi. Xulosa shunday "Muammo" bor "Kambag'allik" yechimi ham bor. U "Odamiylik", "Birlashish, bir xalq bo'lish, kuchli jamiyat barpo etish, ilm-fanga, ma'rifatga intilish". O'zbekiston Qahramoni buyuk ijodkor Erkin Vohidovning she'ridagi kabi "San manga tegma, man sanga tegmay", bo'lmaslik mana bu yechim.

O'ylab qaralsa, muammo bitta so'z. "Kambag'allik" yechimi esa ko'p va yechimning ortidan keladigan yaxshiliklar, go'zalliklarning bisyor ekangligini qarasangiz bir narsa qoladi. "Harakat" bizlardan faqat "Harakat qilish qolgan xolos".

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:

1. Kun.uz 02.01.2021 A.Ro'zioxunov maqolasi.
2. E.Vohidov "Saylanma" kitobi,.
3. N.Yo'ldoshevni shu mavzudagi maqolasi.
4. A.Alijonovning shu mavzudagi mushohada va munozara qo'lyozmalari boshqa adabiyotlardan foydalanildi.